

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta Maxsus
Ta`lim Vazirligi**

**Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik texnika
instituti**

«Sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish» kafedrası

**5140900-Kasb ta`limi «Menejment» yo`nalishi
bakalavrlarining bitiruv malakaviy ishlarini
bajarish bo`yicha**

USLUBIY QO`LLANMA

Buxoro - 2012

Tuzuvchilar: prof.Olimov Q.T.
dots. Ro'ziyeva D.I.
dots. Ulashev X.A.
kat. o`qit. Yuldasheva S.N.

Taqrizchilar: Buxoro Iqtisodiyot va bank kolleji
direktori i.f.d. A.B.Nizomov

Buxoro YUTMTI «SICHTE»
kafedrası dotsenti B.F.Azimov

Ushbu metodik qo`llanmada bitiruv malakaviy ishlarini bajarishning maqsad va vazifalari, tarkibi va mazmuni, rasmiylashtirish talablari, natijalarini amalda tadbiq etish qoidalari hamda himoya qilish tartibi bayon etilgan.

Metodik ko`rsatma Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik - texnika instituti uslubiy kengashida maqullanib, chop etishga tavsiya etilgan.

Bayonnoma № ____, " ____ " ____ dekabr 2012 yil.

Kirish

- 1 Umumiy qoidalar
- 2 Bitiruv ishi mavzusini tanlash
- 3 Mavzuga oid manbalar bazasini yaratish
- 4 Bitiruv malakaviy ishni bajarishni rejalashtirish
- 5 Tadqiq qilinayotgan korxonalarining asosiy texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari va ular bilan ishlash
- 6 Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va mazmuni
- 7 Bitiruv malakaviy ishini tartibga solish
- 8 Bitiruv malakaviy ishni topshirish tartibi
- 9 Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish
- 10 Ilovalar

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalaridan kelib chiqqan holda malakali kadrlarni etishtirish iqtisodiyotimiz ravnaqi uchun asos bo`ladi. Bu dasturga asosan malakali pedagog-menejerlarni tayyorlash izchillikni, chuqur bilimga ega bo`lishni, nazariyani amaliyot bilan bog`lanishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko`zda tutilgan asosiy vazifalardan biri ta`lim tizimini zamonaviy o`quv adabiyotlari va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlashdan iboratdir. Ta`lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol ta`lim omillaridan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, talabalarni ko`proq mustaqil ishlashga undash, ilg`or tajribalardan saboq berishning turli yo`llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda ishlab chiqarishni boshqarish sanoat korxonalari oldida turgan asosiy muammolardan biri bo`lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf qilish nazariyalari yuqori malakali pedagog-menejerlarni tayyorlashni talab qiladi. O`z navbatida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida bitiruv malakaviy ish muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagog-menejerlarni mehnat jamoasini boshqarishning eng ratsional metodlaridan foydalanib ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga imkon yaratishni o`rganib, ularni o`z pedagogik faoliyatlarida qo`llaydilar.

SHu sababli korxonalarda, firmalarda hozirgi davr menejment imkoniyatlaridan foydalanib ularga nisbatan minimal xarajatlarda katta iqtisodiy samara olib kelishi mumkinligini o`rganish davr talabiga mos ravishda rivojlanib boradi.

Menejment yo`nalishi bo`yicha bitiruvchilarni tayyorlash maxsus bozor iqtisodiyoti bilimlarini egallashni talab etadi. Bitiruvchilar o`z kasblariga doir iqtisodiy bilimlarni bilishlari shart va zarur, tayyorlanuvchi mutaxassislar kasbiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda iqtisodiy jabhada har tomonlama hayotga tayyor bo`lib borishlari zarur.

Ushbu uslubiy qo`llanma bitiruvchi kasb ta`limi bakalavrlariga ularning bitiruv ishini yoritishda, rasmiylashtirishda uslubiy yordam berish uchun mo`ljallangan.

I. UMUMIY QOIDALAR

Bitiruv malakaviy ishi ilmiy rahbar tomonidan talabaga beriladigan yakka tartibdagi topshiriqlarga asosan bajariladi. Ular quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- bitiruv malakaviy ishining mavzusini tanlash;
- bitiruv malakaviy ishi rejasini ilmiy rahbarning yordamida birgalikda tuzish;
- bitiruv malakaviy ishini tayyorlash muddatlarini va grafigini kelishish (stenddan);
- bitiruv malakaviy ishiga oid adabiyotlar manbasining ro`yxatini tuzish va ularning sharxlanishini amalga oshirish;
- bitiruv malakaviy ishining nazariy qismida to`plangan adabiyotlar manbasidan foydalanib mavzuga tegishli nazariy manbilarning yoritilishi;
- bitiruv malakaviy ish mavzusining tahliliy qismi bo`yicha tadqiq qilinayotgan korxonalarining faoliyatiga doir zarur bo`ladigan raqamlar, ko`rsatkichlar va boshqa turdagi statistik ma`lumotlarni tegishli korxonalaridan to`plab, tahlil qilish va natijalarga asoslanib, hisob-kitob, taklif, tavsiyalar ishlab chiqish;

- bitiruv malakaviy ishining pedagogik qismi bo'yicha o'qitish uslubiyotining nazariy holati va kasb-hunar kollejlarda o'tilgan pedagogik amaliyotda orttirilgan ko'nikmalar va ularning natijalariga oid bazasidan foydalanish yoki qo'llash.

Bitiruvchining bakalavr yo'nalishi maqomiga erishishida va bitiruv malakaviy ishni bajarishda talabalarning bitiruv oldi amaliyoti o'tkazayotgan korxonalar yoki firmaning faoliyatini o'rganib, tahlil qilish orqali baholab va natijalar asosida tegishli xulosalarga erishib, materiallarni yig'ib, qayta ishlab chiqaradi va amaliy ishni bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bir tomondan mulkchilikning turli shaklidagi ishlab chiqarish korxonalari, firmalar, qo'shma korxonalar, birjalar, banklar va tadbirkorlikning boshqa sub'ektlari ham bo'lishi mumkin, ikkinchi tomondan kasb-hunar kollejlari bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishida makroiqtisodiy ustivorligiga yoki dolzarbligiga qarab ayrim mavzularni yoritishda ilmiy izlanishning iqtisodiy-matematik usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy hisob-kitob ishlarni amalga oshirishda komp'yuterdan foydalanish ham tavsiya etiladi.

II.Bitiruv malakaviy ishning mavzusini tanlash

Bitiruvchi talabalarga IV kursning boshida uning xohishi, amaliyot o'tgan joyi, kafedra ilmiy-tadqiqot ishlarning yo'nalishiga qarab mavzularni tanlashga imkon beriladi. SHu maksadda talabalar IV kursning boshida taklif qilinayotgan bitiruv ishlarning mavzusi bilan tanishadi. Bundan tashqari talaba bitiruv ishning mavzusini o'zi taklif qilishi va asoslashi mumkin. Taklif qilinayotgan mavzu oziq-ovqat sanoati tarmog'i va korxonalarini boshqarish, ishlab chiqarishning dolzarb muammolarini, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida kichik mutaxassislar tayyorlash, o'quv-uslubiy ta'minoti muammolariga, o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, o'qitish va ishlab chiqarish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilimi, ko'nikmalarini baholashda samarali usullarni qo'llash metodikalarini ishlab chiqish muammolarini qamrab olishi lozim. Bunday muammolarga qaratilgan bitiruv malakaviy ishlari ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning o'quv jarayoniga metodik va ilmiy jihatdan yondashishlari bo'yicha bilim, ko'nikmalarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati buyurtmachi tashkilotlar (KHK) bilan mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va fakul'tetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va talabaga topshiriq beriladi.

Talaba bitiruv ishning mavzusini tanlashda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak:

1. Tanlangan ishning natijalarini talaba tahlil qilayotgan korxonaga tadbqiq qilish imkoniyatlari;
2. Ishni bajarish jarayonida olingan bilimlarni yanada mustahkamlash va malakasini oshirish lozimligi;
3. Ilmiy mavzudagi ishlarni bajarishga moyilligi;
4. Bitiruv malakaviy ishni kerakli materiallar bilan ta'minlash va talabaning imkoniyatlari nuqtai- nazaridan bajarilish imkoniyatlari.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbarni talabalarga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Rahbar bitiruv malakaviy ish mavzusiga oid barcha uslubiy ko'rsatma, yo'riqnoma va boshqa materiallar bilan talabani ta'minlaydi. Topshiriqning shakli oliy o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

III. MAVZUGA OID MANBALAR BAZASINI YARATISH.

Bitiruv malakaviy ishni yuqori darajada bajarish ko'p jihatdan mavzuga oid respublikamizda chop etilgan ilmiy adabiyotlarni tanlash hamda ularni chuqur o'rganish bilan bog'liqdir.

Foydalaniladigan adabiyotlarning bazasini yaratishda va ularni o'rganishda talaba tomonidan ijodiy yondashib talab etiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni erkinlashtirish bilan bog'liq bo'lgan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlarga chuqur e'tibor berish zarur. Bulardan tashqari kundalik iqtisodiy- moliyaviy nashrlar, gazeta va jurnallar bilan tanishish, undagi materiallar va ma'lumotli raqamlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

IV. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHNI REJALASHTIRISH.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishga kirishish etarli miqdorda adabiyotlar bazasi shakllantirilgandan keyin uning rejasini tuzishdan boshlanadi. Reja tuzishda talaba mavzuning dolzarbligi, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi ahamiyati va korxonalaridagi amaliy holatini e'tiborga olishi, bajarilgan kurs ishi va ilmiy ma'ruzalarda to'plangan tajriba hamda rahbarning maslahatlariga asoslanadi. Reja tarkibi malakaviy bitiruv ishida ko'riladigan masalalar, muammolar va ularning echimlarini o'z ichiga olishi kerak (1-ilova).

Bitiruv malakaviy ishi rejasi tuzilayotganda talaba tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Oliy Majlis Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari; tarmoq, korxon boshqa ruvining yo'riqnomalari hamda shu kabi normativ-me'yoriy hujjatlar, korxon materiallari va foydalaniladigan adabiyotlarni to'la o'rganib chiqilishi tuziladigan rejaning unumli, optimal bo'lishini ta'minlovchi holatdir.

Rahbar har bir bitiruv ishi bajarayotgan talaba bilan birga bitiruv malakaviy ish bo'yicha ikki nusxada topshiriq va kalendar grafik tuzadi, uni bajarilishini doimo nazorat qilib boradi (4-5 ilovalar). Rahbar malakaviy bitiruv ishini o'zi rahbarlik qilayotgan talabalar qay darajada samarali bajarilayotganligi haqida kafedra yig'ilishlarida hisobot berib turadi.

V. TADQIQ QILINAYOTGAN KORXONALARNING ASOSIY TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR BILAN ISHLASH.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishning o`ziga xos ahamiyati va mas`uliyatli tomonidan biri tanlangan mavzu bo`yicha ishlab chiqarish korxonalarining ma`lumotlarini tahlil qilishdir. Ma`lumotlarni to`g`ri tanlab, ularni to`plash va tahlil etish, bitiruv malakaviy ishini sifatli bajarilishini ta`minlovchi jihatdir.

Ushbu ma`lumotlarni to`plash, ularni qayta ishlash va tegishli tahlil ishlarini bajarishning asosiy qismi ishlab chiqarish amaliyoti va bitiruv oldi amaliyotlari davrida amalga oshiriladi.

Agar bitiruv ishi uchun mavzuning makroiqtisodiy miqyosidagi holatini o`rganish uchun ko`rsatkichlarni taqqoslash zaruriyati tug`ilsa talaba ilmiy rahbar bilan kelishgan holda tarmoqdagi turdosh korxonalarining materiallari bilan ham tanishishi mumkin.

Korxonalar materiallarini o`rganish bo`yicha ma`lumotlarni to`plash (topshiriq va hisobot hujjatlari, ma`lumotlari, tekshirish materiallari va h.k.) bilan bir qatorda talaba ular asosida qo`shimcha hisob-kitoblar qiladi, analitik jadvallar tuzadi va uni bartaraf etish bo`yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish korxonalaridan olingan barcha hujjatlar, dalolatnomalar, shu korxonalar ma`lumotlari bilan to`ldirilgan bo`lishi, raqamlar va boshqa ko`rsatkichlar asosli bo`lishi shartdir.

Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishini bajarishda fan va texnika hamda pedagogikaning so`nggi yutuqlaridan va soha bo`yicha internet yangiliklaridan foydalanish tavsiya etiladi.

VI. BITIRUV ISHNING TUZILISHI, TARKIBI VA MAZMUNI.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda mavzu bo`yicha ko`riladigan masalalarning tasdiqlangan rejaga mos kelishi va qo`yilgan masalani to`la yoritish olishiga alohida e`tibor berish talab qilinadi.

Rahbarning bevosita rahbarligida bitiruv ishning rejasi tuziladi. Bu holda bitiruv ishi quyidagi boblardan (har bir bob o`z navbatida paragraflardan) iborat bo`lishi kerak:

Kirish.

I bob. Tanlangan mavzuning yo`nalishlari bo`yicha nazariy asoslanishi va uslubiy asoslari.

II bob. Tahlil qilinayotgan korxonaning rivojlanish tarixi, ishlab chiqarish, moliyaviy faoliyati ko`rsatkichlarini tahlil qilish, tahlil asosida mavzuni takomillashtirish bo`yicha takliflar kiritish va ularning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini hisoblash.

III bob. Pedagogik bo`lim.

IV. bob. Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya qismi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzusining hozirgi davrdagi dolzarbligi yoritiladi. Ishning maqsadi va vazifalari aniq va to`g`ri yoritilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobida ishning mavzusi yoritilgan ilmiy va amaliy adabiyotlar umumlashtiriladi, mohiyati yoritiladi, berilgan yo`nalishlarning dolzarbligi ko`rsatiladi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy va ilmiy ta`rifi, iqtisodiy tavsifi, uni bozor islohotlari sharoitidagi ahamiyati, zarurligi, unga ta`sir ko`rsatuvchi omillar, ularning xususiyatlari va vazifalariga keng to`xtalib o`tiladi.

Birinchi bobda tegishli iqtisodiy qonunlarning mohiyati, namoyon bo`lish ob`ektivligi va ularni ishlab chiqarish korxonalariga qo`ygan talablari ochib beriladi. Shu maqsadda ilmiy monografiya va risolalardan keng foydalanish mumkin.

Ushbu nazariy asoslashlar keyingi boblarda bayon qilinadigan amaliy holat, muammo va kamchiliklarni mavzuga oid o`tkaziladigan tahlil bilan bog`lash va to`la yoritilishiga asos bo`lishi kerak.

Shuningdek, tegishli iqtisodiy qonunlarning mohiyati, namoyon bo`lish ob`ektivligi va ularni ishlab chiqarish korxonalariga qo`ygan talablari ochib beriladi. Shu maqsadda ilmiy monografiya va risolalardan keng foydalanish mumkin. Ushbu nazariy asoslashlar keyingi boblarda bayon qilinadigan amaliy holat, muammo va kamchiliklarni mavzuga oid o`tkaziladigan tahlil bilan bog`lash va to`la yoritilishiga asos bo`lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida tanlangan mavzular asosida tahlil qilinadigan korxonaning (firmaning) tarmoq masshtabidagi faoliyat darajasi keltiriladi. Korxonaning iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi faoliyat tendensiyalari, moliyaviy xo`jalik holati, kamchiliklari va muammolari batafsil yoritiladi, mavzuni yoritish uslublari tahlil qilinadi. Mavzu asosida tanlangan korxonaning xo`jalik faoliyati tahlil qilinib, mavzu asosida tegishli tahlillar ham qilinishi kerak.

Shuningdek, firmaning (korxonaning) maqsadga erishish yo`llari va texnologiyasini ochib berish, yechimini topish mexanizmi masalalarini tahlil qilish usullari ko`rsatiladi. Bundan tashqari talaba korxonada faoliyatini qilgan tahlili asosida aniqlagan omillarni ishlab chiqarishda takomillashtirish tadbirlarini taklif qiladi.

Iloji boricha, har bir taklif qilingan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblash kerak. Bu hollarda tadbirlarni hayotda tadbiq qilishdagi samaradorligi yoki boshqa tarmoqlar, birlashmalar tajribalarini dalil qilishga asoslanadi: masalan,

1. Ishlab chiqarishning o`zgaruvchanligini ta`minlangan holda korxonaning foydasini oshirish (mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko`paytirish, assortimentini kengaytirish va sifatini yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish tuzilishini rejalashtirishni, narx siyosatini, marketing tadqiqotlarini, innovatsiya siyosatini, strategik boshqarish sistemasini, moliyaviy siyosatni takomillashtirish hisobiga va hokazo).
2. Mehnat unumdorligining o`sishi (hodimlar siyosatini takomillashtirish hisobiga, hodimlarni motivatsiyasi, boshqarishning tashkiliy sistemasini takomillashtirish, ishlab chiqarishni boshqarish jarayonini axborot, texnik, texnik va dasturiy ta`minlash, menejmentning asosiy funktsiyalaridan foydalangan holda va hokazo).

Bitiruv malakaviy ishning uchinchi bobi – metodika qismi Zamonaviy ta`lim sharoitida talabalarning qobiliyati, ong va ko`nikmalarini o`stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va faollashtirish muammosi muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar kelajakda talabalar qobiliyatini va qiziqishiga ongli ravishda o`z kasblariga qiziqish va mas`uliyatni oshishiga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishni metodika qismini bajarishdan maqsad bo`lajak o`qituvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish, olgan bilimlarni amalda qo`llashga o`rgatish, ularning mustaqil izlanish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, muammo yoki masalaning (muammoning) qo`yish jarayonidan boshlab, uni to`la miqoyasiga yetkazish bo`yicha qaror qabul qilishda bo`lgan mas`uliyatni his etishga yo`naltirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining metodika qismini quyidagi ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalar amalga oshirilishi kerak:

Bitiruv malakaviy ishini metodika qismini bajargandan keyin talaba quyidagi bilim, ko`nikma, malaka va metodik kompetentsiyalarni egallashi lozim:

- o`rta maxsus va kasb-hunar ta`lim muassasalarida maxsus fanlarni o`qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va o`tkazish;
- o`quv amaliyotini va ishlab chiqarish ta`limini tashkil etish va o`tkazish;
- o`quvchilar bilim va ko`nikmalarini baholash metodlarini samarali qo`llash;
- maxsus fanlar bo`yicha mashg`ulotlarni pedagogik va axborot texnologiyalar asosida loyihalashtirish;
- o`qitish jarayonida ta`limning faol metodlarini o`rinli qo`llash;
- kollej o`quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish, o`tkazish va baholash;
- o`rta maxsus va kasb-hunar ta`limida maxsus fanlardan o`quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish;
- ta`lim beradigan maxsus fani bo`yicha elektron ta`lim resurslarini yaratish.

Bakalavriatning Kasb ta`limi yo`nalishlari uchun bitiruv malakaviy ishining metodika qismi o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi masalalariga bag`ishlanadi. Bitiruv malakaviy ishi metodika qismi bo`yicha berilgan topshiriqni bajartirish jarayonida mavzuning dolzarbligiga, ilmiy metodik jihatdan yangiligiga, maqsadi va vazifasining qo`yilishiga, eng yangi axborot manbalaridan foydalanilishiga, amaliy tavsiyalar va muallif qarashlarining orginalligiga, materialni bayon qilish uslubi hamda xulosalarning mustaqilligiga, ko`rgazmali materiallar mavjudligi va sifatiga ahamiyat berish lozim.

Bitiruv malakaviy ishini metodika qismiga rahbarlik qilish talabaning rahbariga (pedagogik qayta tayyorlashdan o`tgan) yoki "Ijtimoiy fanlar" kafedrasidagi tayanch ma`lumoti ta`lim yo`nalishiga mos hamda pedagogika fanlari nomzodi yoki doktori ilmiy darajasiga ega bo`lgan professor -o`qituvchiga yuklatiladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodika qismi 25-30 bet hajmni tashkil etishi lozim. Bitiruv malakaviy ishi metodik qismini bajarishda iloji boricha oxirgi 5 yilda nashr etilgan adabiyotlar, ilmiy-metodik ishlar hamda internet yangiliklaridan foydalanish tavsiya etiladi.

3.1. BITIRUV MALAKAVIY ISHI METODIKA QISMINING TARKIBI

Metodika qismi bo`yicha beriladigan topshiriq bitiruv malakaviy ishning mavzusiga mos holda tanlanishi shart.

Metodika qismi bo`yicha beriladigan topshiriq tarkibi quyidagilardan iborat bo`lishligi tavsiya etiladi:

1. Kasb-hunar kollejaridagi " " fanining " " mavzusini o`qitish texnologiyasini ishlab chiqish.
Tarkibi

- A) " " mavzusi bo`yicha o`quv materialini bayoni (Mashg`ulot nomi, rejasini, mazmuni, tayanch iboralar, adabiyotlar va elektron ta`lim resurslari ro`yxati)
- B) " " mavzusini o`qitish texnologiyasi modelini ishlab chiqish
- V) Mashg`ulotning texnologik xaritasini shakllantirish.
- G) Mavzu yuzasidan vizual materiallarni ishlab chiqish.
- D) O`qitish texnologiyasida tavsiya etilgan o`qitish metodlari
- E) Nazariy va amaliy ko`nikmalarni baholash mezonlari va (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) materiallari

2. Kasb-hunar kollejlardagi " " maxsus fani bo`yicha mustaqil ishlarni tashkil etish, o`tkazish va baholash.

Tarkibi

- A) Kasb-hunar kollejlarda " " maxsus fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari.
- B) " " maxsus fanidan mustaqil ishning tashkiliy shakllari va turlari.
- V) " " maxsus fanidan mustaqil ishlar bo`yicha topshiriqlarini ishlab chiqish
- G) " " maxsus fanidan mustaqil ishlar bo`yicha topshiriqni bajarish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
- D) Mustaqil ishlarni nazorat qilish va baholash mezonlari hamda materiallarini (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) ishlab chiqish.

3. Kasb-hunar kollejlarda " " fanidan o`quv amaliyotini tashkil etish, o`tkazish va baholash metodikasi

Tarkibi

- A) O`quv amaliyoti mavzusi asosida ishchi o`rnini tashkil qilish.
- B) O`quv amaliyotini o`tkazish bo`yicha yo`riqnoma va ko`rsatma ishlab chiqish
- V) O`quv amaliyoti mashg`ulotining o`quv maqsadlarini belgilash.
- G) O`quv amaliyoti texnologik xaritalarini ishlab chiqish.
- D) O`quv amaliyotining shakli va metodlarini yoritish
- E) O`quv amaliyoti bo`yicha o`quvchilar ko`nikmalarini baholash mezonlari va materiallarini (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) ishlab chiqish.

4. Kasb-hunar kollejlarda " " maxsus fanining " " mavzusini o`qitishda keys stadi texnologiyasini qo`llash.

Tarkibi

- A) " " mavzusi bo`yicha o`quv materialini bayoni (Mashg`ulot nomi, rejasini, mazmuni, tayanch iboralar, adabiyotlar va elektron ta`lim resurslari ro`yxati)
- B) Keys stadi texnologiyasi mohiyati va mazmuni
- V) Keys stadi maqsad va vazifalarini ishlab chiqish
- S) Keys stadi materiallarini tanlash
- D) Keys turlarini aniqlashtirish
- E) Keys matni va unga qo`yiladigan savol va topshiriqlarni ishlab chiqish
- K) Keys stadi texnologiyasi modeli
- M) Texnologik xaritasini tuzish

J) Keys stadi texnologiyasi bo'yicha ta'lim oluvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari va materiallarini (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) ishlab chiqish

5. Kasb hunar kollejlari " " mahsus fanining " " mavzusini muammoli o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tarkibi

A) " " mavzusi bo'yicha o'quv materialini bayoni (Mashg'ulot nomi, rejasi, mazmuni, tayanch iboralar, adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati)

B) Muammoli o'qitish texnologiyasi mohiyati va mazmuni

V) Muammoli vaziyatlar yoki topshiriqlarni ishlab chiqish

G) Muammoli o'qitish texnologiyasi modeli

D) Muammoli o'qitish bo'yicha texnologik xaritasini tuzish

J) Muammoli o'qitish texnologiyasi bo'yicha ta'lim oluvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari va materiallarini (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) ishlab chiqish

6. Kasb-hunar kollejlari " " maxsus fanining " " mavzusini o'qitishda loyiha metodini qo'llash

Tarkibi

A) " " mavzusi bo'yicha o'quv materialini bayoni (Mashg'ulot nomi, rejasi, mazmuni, tayanch iboralar, adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati)

B) Loyiha metodining mohiyati va mazmuni

V) Loyiha topshiriqlarini ishlab chiqish

G) Loyiha metodini qo'llab o'qitish texnologiyasi modeli

D) Loyiha metodini qo'llab o'qitish bo'yicha texnologik xaritasini tuzish

J) Loyiha metodini qo'llab o'qitishda texnologiyasi bo'yicha ta'lim oluvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari va materiallarini (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) ishlab chiqish

7. Kasb hunar kollejlari " " maxsus fanini " " mavzusini o'qitishda o'yinli texnologiyalarni qo'llash.

Tarkibi

A) " " mavzusi bo'yicha o'quv materialini bayoni (Mashg'ulot nomi, rejasi, mazmuni, tayanch iboralar, adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati)

B) O'yinli o'qitish texnologiyasi mohiyati va mazmuni

V) O'yinli topshiriqlarni ishlab chiqish

G) Mavzuni o'yinli o'qitish texnologiyasi modeli

D) O'yinli o'qitish bo'yicha texnologik xaritanini tuzish

J) O'yinli o'qitish texnologiyasi bo'yicha ta'lim oluvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari va materiallarini (testlar, nazorat savollari, topshiriqlar, krossvordlar, rebuslar va x.k.) ishlab chiqish

3.2. BITIRUV MALAKAVIY ISHI METODIKA QISMINING AMALDAGI TADBIG'I VA HIMOYASI

Ayrim hollarda bitiruv malakaviy ishining metodika qismi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham bajarilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishni metodika qismini talaba tomonidan bajarib bo'lingandan keyin rahbar xulosa beradi. So'ngra kafedra mudiri tomonidan talabaga kasb-hunar kollejida ishlab chiqilgan o'qitish metodikasini (o'qitish texnologiyasini) tadbiiq etish uchun yo'llanma beriladi. Talaba kollej o'quvchilariga o'zining mavzusi bo'yicha ishlab chiqqan metodikasi (o'qitish texnologiyasi) asosida 1 ta mashg'ulot o'tkazadi. Kollej rahbariyati tomonidan mashg'ulot o'tkazilganligi, uning afzalligi va kamchiliklari hamda tavsiyalar yoritilgan dalolatnoma beriladi. Dalolatnomaga mashg'ulot o'tkazilishi jarayonidagi fotolavhalar ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishining himoyasida bitiruvchi metodika qismi bo'yicha bajargan ishlarini taqdimot qiladi.

To'rtinchi bob - hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya qismini bajarishga qo'yiladigan talablar BMI "Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qismi, BMI umumiy topshirig'ida shu fanlaridan mashg'ulotlarni olib borgan o'qituvchi maslahati bilan amalga oshirilishi yakka tartibdagi topshiriqlarga asosan bajariladi.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-bo'lim ish rejasini bitiruv malakaviy ishi mavzusidan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishi rahbari va maslahatchi bilan kelishish;

-bo'limni yozish bo'yicha foydalanadigan adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

-bo'limni yozish bo'yicha zarur bo'ladigan ma'lumotlarni tegishli tashkilotlardan to'plash.

Bitiruv malakaviy ishi "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qismini bajarishda talabalarni bitiruv oldi amaliyotini o'tishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu davrda talaba o'zi tanlagan korxonalar, tashkilot, laboratoriya va h.k. faoliyati, holati bo'yicha materiallarni yig'ib, qayta ishlab chiqadi va hisobotida ko'rsatishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi talabaning mustaqil ijodiy ishi hisoblanadi. Shuning uchun, uning tarkibi, yozuvining yozilish tartibi, qanday ma'lumotlarni qaysi shaklda, qay tarzda berilishi, albatta BMI rahbari va maslahatchilari bilan kelishgan holda talaba-muallifning zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruv malakaviy ishi "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qismining ob'ekti sifatida mulkchilikning turli shaklidagi ishlab chiqarish korxonalari yoki ularning bo'limlari, servis korxonalari (kompaniyalar) va boshqalar qabul qilinishi mumkin.

Ma'lumki, BMI Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari asosida o'tilgan fanlarning yakuniy baholash mezonini qisoblanadi. BMI yosh mutaxassisning mustaqil ravishda xo'jalik yuritish bilan bog'liq masalalarni yechish qobiliyatini baholovchi hujjat hisoblanib, uning himoyasi bakalavrning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiyasi" qismida talabalar "Ekologiya", "hayot faoliyati xavfsizligi" fanlaridan kelib chiqqan holda, BMI mavzusiga mos mavzularni yoritishlari talab etiladi. Talaba BMI mavzusiga to'g'ri keladigan mavzularning va shu yordamida kamida 5-6 mavzusini tanlashi va BMI "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiyasi" qismining tarkibi sifatida qo'llashi tavsiya etiladi. Mavzularni tanlashda "MMNDT" va boshqa ta'lim yo'nalishlariga: "Mehnat muhofazasi", "Texnika xavfsizligi", "Yong'in xavfsizligi",

"Atrof muhit muhofazasi" va "Birinchi tibbiy yordam ko`rsatish" mavzularini 12-15 bet hajmda ochib berish tavsiya etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiyasi" bo`limining mazmuniga quyidagi talablar qo`yiladi:

- bo`lim mavzusi mazmunini nazariy tomondan yoritish;
- tanlangan mavzular bo`yicha masalalar holatini tahlil qilish;
- ishning maqsad va vazifalarini amaliy ma'lumotlarga asoslanib shakllantirish;
- tegishli xulosalarni keltirish va bajarilgan tadqiqotlar natijalari bo`yicha takliflar ishlab chiqish.

2. Bitiruv malakaviy ishi "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qism mavzularini tanlash

BMI "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qismi mavzusini to`g`ri tanlash talabaning izlanishlari samaradorligini belgilab boradi, shu sababli kafedra tomonidan o`quv dasturiga asosan mavzular erkin tanlash imkoniyati uchun belgilab berildi. Shuni ham ta`kidlash lozimki, bo`lim mavzuini tanlashda talabalar ta`lim jarayonida yozgan ishlari, ilmiy ma`ruzalariga mos keladigan yo`nalish bo`yicha mavzuni tanlash lozim. "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qismi uchun tanlangan mavzu BMI mavzusiga mos va boshqa bo`limlar bilan bog`liq ravishda bajarilsa maqsadga muvofiqdir.

Masalan: BMI mavzusi "Ta`lim va soqliqni saqlash tizimlarini moliyalashtirish va rivojlantirish yo`llari (Buxoro viloyati hokimligi Moliya boshqarmasi ma'lumotlari bo`yicha)", bunda biz quyidagicha rejalashtirishimiz mumkin:

- a) xodimlarni sog`lom ish sharoitlarini tashkil qilishdagi majburiyatning bajarilishi;
- b) boshqariladigan kasb kasalliklarning tahlili;
- v) mehnat sharoitining ergonomik va metrologik talablarga javob berishi, bermasligi;
- g) yong`in xavfsizligi bo`yicha bajarilgan chora-tadbirlar;
- d) xulosa va takliflar.

Misol: "Kasanachilik xizmatlar bozorini o`rganishda marketing asoslari" ("Buxoro zarlari" MCHJ misolida), bunda ham, MCHJ dagi "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" bo`yicha holat va tashkil etilgan yoki etilishi lozim bo`lgan ishlar bo`yicha bo`lishi mumkin:

- a) MCHJda sog`lom ish sharoitlarini tashkil qilish majburiyatlari;
- b) korxonada tashkilotlarda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini hisobga olish, ulardan keladigan moddiy zarar;
- v) yong`in xavfsizligi, yong`in muhofazasidagi ma`muriyat majburiyati.

Misol: "Iqtisodiyot asoslari" fanini o`qitish metodikasi va uni tashkillashtirish yo`llari", bunda: o`qitish jarayonidagi mehnat muhofazasi, ergonomik, metrologik sharoitlarni yaratish majburiyati, yong`in muhofazasini tashkil etish, o`quv elektr vositalar xavfsizligi va q.h. bo`yicha bo`lishi mumkin:

- a) o`qitish jarayoni mehnat muhofazasi;
- b) sog`lom ish sharoitini tashkil qilish majburiyatlari;
- v) o`quv jarayoni ergonomik, metrologik sharoitlarining talab darajasida bo`lishi;

Umuman olganda:

- ishni sifatli va muvaffaqiyatli bajarishda mavzuning talaba tomonidan

mustaqil ravishda va to'g'ri tanlashi muhim ahamiyatga ega;

- ilmiy rahbar, maslahatchi bilan birgalikda mavzuni talaba imkoniyatlarini olgan holda tanlash;

- talaba bitiruv oldi amaliyotida o'tgan yoki birlashtirilgan tashkilotdagi holatdan boshqaruvi ishning tashkil etilganligiga bog'liq muammolardan kelib chiqqan qolda mavzuni taklif etish;

- olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar yo'nalishiga bog'liq tegishli mavzuni tanlash va boshqalarga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Ushbu uslubiy mavzuda keltirilganlardan tashqari, bitiruv malakaviy ish mavzusidan kelib chiqqan va hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha ham mavzular BMIda yoritilishi mumkin. Masalan, mehnat xavfsizligi tadbirlarini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash, moliyaviy ta'minlash, ko'p yillik holatining tahlili, mehnat muhofazasiga rioya etmaslikdan keladigan moddiy zararlarni aniqlash va sug'urta masalasi va boshqalar.

3. Korxonalar, tashkilot, muassasa va boshqalar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ular ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ishi "hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya" qismini bajarishning muhim va mas'uliyatli tomonlaridan biri, tanlangan mavzu bo'yicha ishlab chiqarish korxonalar, muassasa, tashkilot va boshqalarning ma'lumotlarini to'plash va ular ustida ishlash hisoblanadi. Ma'lumotlarni to'g'ri tanlab, hayot faoliyati xavfsizligi holati bo'yicha ularni to'la to'plash va tahlil etish malakaviy ishning sifatli bajarilishi garovidir. Ushbu ma'lumotlarni to'plashning asosiy qismi ishlab chiqarish amaliyoti va bitiruv oldi amaliyotlari davrida amalga oshiriladi. Bitiruv ishi uchun, ko'rsatkichlarni solishtirish zaruriyati tug'ilsa, talaba BMI rahbari, maslahatchi bilan kelishgan holda, boshqa korxonalarning materiallari yoki me'yoriy hujjatlardan ham foydalanishlari mumkin.

Korxonalar materiallarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlarni to'plash (topshiriq va hisobot hujjatlari, ma'lumotnomalar, tekshirish materiallari va q.h.) bilan bir qatorda talaba ular asosida qo'shimcha jadvallar, dalolatnoma tuzadi va tahlillar o'tkazadi.

Masalan, ish joyining yoritilganlik darajasi (xonalar bo'yicha), shovqin darajasi, changlanish holati, harorat shamol tezligi, baxtsiz hodisalarda tuziladigan dalolatnoma (H 1, 2 shakllarda), me'yoriy hujjatlar ro'yxati, yong'indan evakuatsiya qilish sxemasi, yong'inga qarshi qurol-aslahalarning bor-yo'qligi, atrof-muhit muhofazasi, dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish uchun vosita va aptechka bilan ta'minlanganligi va q.h. Bu o'z navbatida kamchiliklarni aniqlash, muammolarning yechimini topish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

VII. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TARTIBGA SOLISH.

Talabalarni bitiruv malakaviy ishi – O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar»ga to'la javob beradigan darajada yozilishi va tartibga solinishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi – 80-100 betdan iborat bo'lib, 10-15 ming so'z hajmida qo'lyozma tarzda bajarilishi shart: *(Istisno shaklida ayrim bir*

sabablarga ko`ra mavzular kafedra majlisining qaroriga ko`ra komp'yuterda pechat shaklida keltirilishi mumkin)

Mundarija -	1-2 bet
Kirish -	2-3 bet
I bob -	20-30 bet
II bob -	25-30 bet
III bob -	20-25 bet
IV bob -	10-12 bet
Xulosa -	2-3 bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati -	2-3 bet

Bitiruv malakaviy ishiga tegishli grafiklar, diagrammalar va jadvallar Power Point dasturi asosida slaydlar ko`rinishida tayyorlanib, 6-7 donadan kam bo`lmasligi kerak.

Matnni yozish tartibi – bitiruv malakaviy ishi aniq va tushunarli tilda, qisqartirishlarsiz va orfografik xatolarsiz, ya`ni yuqori savodxonlik darajasida bajarilishi zarur.

Matnni joylashtirish tartibi – bitiruv malakaviy ishi matni standart oq qog`ozning faqat bir tomoniga yoziladi. Ushbu qog`ozni chap tomonidan 3 sm, uning ung tomonining tepa qismidan 1,5 sm va pastki qismidan 2 sm qoldiriladi. Tushuntiruv yozuvi har bir bo`lim uchun belgilangan katta va qolgan varaqlari kichik burchak shtamlari bilan rasmiylashtiriladi.

Hisoblash formulalari tushunarli va aniq qilib raqam bilan qo`lda yoziladi. Jadvallar, rasmlar, grafiklar va chizmalar ham oq qog`ozga yuqoridagi talabga amal qilgan holda tushiriladi va nomerlanadi.

Agar mavzuni yoritish jarayonida muayyan manbalardagi tsitatalar, jumlar va tegishli iboralardan foydalanilsa, u holda manba aniq ko`rsatilishi, ko`chirilgan jumla qo`shtirnoq bilan belgilanishi, qaysi adabiyotning qaysi betidan olinganligi mazkur sahifaning pastki qismida ko`rsatilib qo`yilishi zarur. Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishining boblarini yoritishda qo`llanilgan adabiyotlar va manbalar ro`yxatdagi tartib raqamiga ko`ra har bir bobning oxirida ko`chirma sifatida beriladi.

Varaqalarni raqamlash – bitiruv malakaviy ishining varaqlari, jadval va grafiklar sxema va ilovalarning barchasi oxirgi varaqqacha raqamlanib chiqiladi. Birinchi zar varaq – titul qismi bo`lib, unga «1» raqami qo`yilmaydi, ikkinchi varaq mundarija bo`lib unga «2» raqami qo`yiladi va x.k. Raqam har bir varaqning yuqori qismiga va o`ng tomonidan yoziladi. Talaba – bitiruv malakaviy ishning muallifi sifatida unda keltirilgan ma`lumotlar va ko`chirilgan gaplarning to`g`riligiga to`la mas`uldir.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yilgan talablarga javob bermaydigan bitiruv malakaviy ish himoyaga qo`yilmaydi.

Materiallarni joylashtirish – bitiruv malakaviy ishi materiallarini quyidagi tartibda joylashtirish maqsadga muvofiq.

1. TITUL VARAG'I (3-4-ilova).
2. MUNDARIJA
3. BOBLAR

4. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI
5. XULOSA
6. ILOVALAR

VIII. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TOPSHIRISH TARTIBI.

Bitiruv malakaviy ishlari bo`yicha kafedrada maxsus ajratilgan xonada maslahatlar berib boriladi. Bitiruv malakaviy ishining bajarilishini doimiy ravishda kafedra mudiri nazorat etadi. Belgilangan muddatlarda talaba bitiruv malakaviy ishining bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiriga ma`lumot berib boradi.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so`ng, ishni o`z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlaridagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi.

Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv malakaviy ishini talaba tomonidan Davlat Attestatsiya Komissiyasi (DAK) da taqdimot qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agarda, kafedra mudiri talabaning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhoqama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim qilinadi.

Agar bitiruv malakaviy ishi yuqoridagi talablarga javob bersa, unda kafedra mudiri talabani tadqiqot o`tkazilgan korxonadan mutaxassis taqrizchiga yoki kasb hunar kollejlari etakchi pedagoglariga tashqi taqriz olish uchun yuboradi. Tashqi taqrizni odatda yo`nalish bo`yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o`quv yurtlarining malakali professor va dotsentlari, ilmiy muassasalarning ilmiy xodimlari, kasb ta`limi muassasalari etakchi o`qituvchilari, ishlab chiqarish korxonalarining soha mutaxassislari bitiruv malakaviy ishi bilan tanishib chiqqandan so`ng beradilar. Tashqi taqriz muallifining familiyasi, xizmat lavozimi hamda muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Taqrizlarda bitiruv malakaviy ishining mazmuni, unda ko`rilgan masalalar, ishning saviyasi, kamchiliklari va yutuqlari yozma ravishda bayon qilinadi hamda mazkur ish umumiy baholanadi. Bunda talaba 100 ballik reyting nazorati tizimi asosida baholanadi.

Ushbu taqrizlar bilan talaba to`la tanishib chiqadi va unda ko`rsatilgan kamchiliklarga javob berish uchun tayyorlanadi.

IX. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI HIMOYA QILISH.

Bitiruv malakaviy ishning oxirgi yakuniy bosqichi uni YAkuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasining ochiq yig`ilishida himoya qilinadi.

Himoya quyidagi tartibda amalga oshiriladi: talaba 10-15 daqiqa ichida o`zining bitiruv malakaviy ishida bajargan asosiy masalalarini bayon qiladi. Bunda talaba tanlangan bitiruv malakaviy ishining mavzusini asoslaydi, uning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, har bir bobning qisqacha mazmuni, kiritgan tavsiya va takliflarini bayon qiladi. Shuning uchun talaba bitiruv malakaviy ishining himoyasiga yuqoridagi masalarni e`tiborga olgan holda oldindan tayyorlanishi lozim.

Talaba himoyasini tugatgandan so`ng, unga Davlat Attestatsiya komissiyasi raisi va a`zolari tomonidan savollar beriladi. Talaba ushbu savollarni yozib oladi va ularga javob beradi. Shundan so`ng Davlat Attestatsiya Komissiyasining raisi tomonidan bitiruv malakaviy ishi rahbarining xulosasi, korxonada mutaxassisi yoki kasb hunar kollejlari etakchi pedagogi tomonidan berilgan tashqi taqrizdagi kamchiliklarni o`qib eshittiradi. Berilgan savollarga va ko`rsatilgan kamchiliklarga talabaning bergan javoblari aniq va asoslangan bo`lishi kerak, chunki javoblar himoyaning umumiy bahosini belgilaydi.

Himoya tugatgandan so`ng talabaning bitiruv malakaviy ishini va uning himoyasini Davlat Attestatsiya komissiyasi 100 ballik tizim asosida baholaydi. Talaba to`plashi mumkin bo`lgan maksimal ballar quyidagicha baholanadi:

86-100% - «A`lo»

71-85% - «Yaxshi»

55-70% - «Qonikarli»

55% dan kam bo`lsa - «Qonikarsiz»

Bitiruv malakaviy ishi himoyasida maksimal 100 ball quyidagi tartibda taqsimlanadi:

1. Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi – 10 ball;
2. Tushuntirish yozuvining Davlat ta`lim standarti talablariga mosligi – 25 ball;
3. Grafik qismining davlat standartlari – talablariga muvofiq ligi 25 ball;
4. Talabaning himoyasi – 20 ball;
5. Berilgan savollarga javoblari – 10 ball;
6. Rahbar va taqrizning xulosalari – 10 ball.

Davlat attestatsiyasi komissiyasining himoya natijasi bo`yicha qabul qilgan qarori maxsus bayonnomalarda rasmiylashtiriladi. Ushbu Qaror o`zgarmas hisoblanadi. U talabaning oliy o`quv yurtining tugatganligi uchun ixtisosligi bo`yicha diplom olishga asos bo`ladi.

I L O V A L A R

1-ILOVA

Malakaviy bitiruv ishini bajarish rejasini tuzishga doir

N A M U N A

Mavzu: Korxonalarda asosiy fondlardan samarali foydalanish yo`llari.

Reja:

KIRISH.

I BOB. Korxonalarda asosiy fondlardan samarali foydalanishning nazariy asoslari.

1.1. Korxonaning asosiy fondlarining mohiyati va ahamiyati.

1.2. Asosiy fondlarning tarkibi va tuzilishi.

1.3. Korxonada asosiy fondlardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo`llari.

II BOB. Korxonaning xo`jalik faoliyati tahlili.

2.1. Korxonaning rivojlanish bosqichlari va asosiy texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari.

2.2. Korxonaning xo`jalik faoliyati tahlili.

2.3. Korxonada asosiy fondlar tahlili.

2.4. Korxonada asosiy fondlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish yo`llari bo`yicha takliflar.

III BOB. Pedagogik qism.

3.1. Mutaxassislik fanlarini ukitishning ilgor pedagogik texnologiyalari tasnifi.

3.2. "Korxonalarda asosiy fondlardan samarali foydalanish yo`llari" mavzusining interfaol usulda o`qitish majmuasi:

a) sharoitlar tahlili

b) darsning o`quv-uslubiy asoslari

v) mashg`ulotning texnologiyasi va texnologik xaritasi

g) "Korxonalarda asosiy fondlardan samarali foydalanish yo`llari" mavzusining "ishbilarmonlar o`yini" uslubi asosidagi ishlanmasi

d) ta`lim jarayonini baholashning asoslari.

IV BOB. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi chora tadbirlari.

4.1. Korxonada mehnatni muxofaza qilish faoliyatini tashkil etish.

4.2. Ta`lim jarayonida hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ko`rsatmalari.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

ILOVALAR.

2-ILOVA

Bux YuTMTI «Sanoatda ishlab chiqarishni
tashkil etish» kafedrası
mudiri _____ ga
_____ guruhi talabasi
_____ dan
(talabaning ismi va sharifi)

A R I Z A

Menga bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun _____

(mavzu nomi)

nomli mavzuni biriktirib qo`yishingizni surayman

Bitiruv malakaviy ishining tahliliy qismi: _____

(korxonona nomi)

Bitiruv malakaviy ishining pedagogik qismi: _____

(kasb-hunar kolleji)

faoliyati asosida bajaraman

Mazkur mavzu bo`yicha _____ ni

(rahbar ismi va sharifi)

rahbar etib tayinlashingizni surayman.

« ___ » _____ 20 yil _____

(imzo)

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI

BUXORO YUQORI TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK TEXNIKA
INSTITUTI

“Oziq ovqat texnologiyasi” fakul’teti

“Sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish” kafedrası

“Himoyaga ruxsat qilinadi”

Kafedra mudiri: _____ dots. Ruzieva D.I.

« _____ » _____ 2012 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: « _____ »

Bajardi: _____ guruhi talabasi

(talaba ismi va sharifi)

Rahbar:

(rahbar ismi va sharifi)

Buxoro-2012 y

Ximoyalash kuni

« _____ » _____ 2012 y.

DAK bahosi

Dak qarori

Oliy o`quv yurti

“_____” fakul’teti _____
Kafedrası _____yo`nalishi _____guruxi

Tasdiqlayman _____

Kaf.mudiri _____

20__yil_____

Sana

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____
(famiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi _____

«__» _____ 20__ y. Kafedra majlisida ma`qullangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar _____

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yxati)

5. CHizma ishlab chiqarish ro`yxati (chizmalar nomi aniq ko`rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo`yicha maslahatchi (lar)

№	Bo`lim mavzusi	Maslahatchi o`qituvchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1				
2				
3				
4				
5				

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarning nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o`tganlik belgisi
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			

Bitiruv ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq bajarilgan sana 200____yil

